



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2024-yil 20-iyun, № 122 (8745)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## TA'LIM SIFATINI OSHIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabgacha va maktab ta'limi sifatini oshirish, pedagoglar malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

O'quvchilarning fanlarga qiziqishi va o'rganishi ko'p jihatdan murabbiylarning bilim va mahoratiga bog'liq. Shu bois pedagoglarning malakasini oshirishga zarur sharoit yaratilib, baholash tizimi takomillashtirib borilmoqda.

Mutasaddilar, avvalo, shu haqda axborot berdi. Qayd etilganidek, attestatsiyada ilg'or texnologiyalarga asoslangan yangi tartib joriy etilgan. Unda 190 mingdan ziyod o'qituvchilar qatnashib, shundan 51 ming nafarining toifasi oshirilgan.

Maktablarda bilimni va izlanuvchan pedagoglar ko'payishini doimiy rag'batlantirish zarurligi ta'kidlandi. 2025-yil sentabrdan oliy va birinchi malaka toifasiga ega o'qituvchilarning oylik maoshini oshirish taklifi bildirildi.

Attestatsiyadan o'tolmagan, tajribasi yetarli bo'lmagan o'qituvchilar uchun alohida dastur ishlab chiqib, malakasini oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Bu borada malaka oshirish markazlari hamda pedagogika kollejlari imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur. Shu maqsadda Prezident maktabi tajribasi asosida Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot institutida bog'cha va maktablar rahbar hamda pedagoglarining har 5 yilda malakasini oshirish tizimi yo'lga qo'yilishi belgilandi.

Hududlardagi 11 ta pedagogika kollejni Malaka oshirish markazlari tasarrufiga o'tkazib, xorijdan trenerlarni jalb etish vazifasi qo'yildi.

Shuningdek, kam quvvatda ishlayotgan pedagogika kollejlari negizida bog'cha va maktablar, texnikumlar, "Barkamol avlod" maktablari tashkil qilinishi aytili.

Ilg'or tajribalarni ommalashtirish maqsadida o'tgan yili 500 ta maktabda Prezident maktablarining baholash tizimi joriy etilgan edi. Buning samarasida ulardagi o'quvchilarning o'zlashtirishi 53 foizdan 59 foizga oshgan. Yuqori natijaga erishgan maktablar rahbariyati va o'qituvchilariga 40 foizgacha ustama belgilangan.

Shu bois ushbu baholash tizimi yangi o'quv yilidan yana 1 mingta maktabda qo'llana boshlaydi. Ularga 182 ta ixtisoslashtirilgan hamda 500 ta tajribadan o'tgan maktab birkirtiladi.

Shuningdek, 270 ta maktab interaktiv doska, 365 tasi kompyuter sinflari bilan jihozlanadi.

Taqdimotda Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti negizida Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish taklifi ham muhokama qilindi. Yangilangan institutga "mahalla — ota-onaga — maktab" hamkorligini kuchaytirish, ota-onalar va bolalar uchun tarbiyaga oid adabiyotlar yaratish, jadidlarning tarbiyaviy qarashlarini ilmiy tadqiq etish kabi vazifalar yuklatiladi. 5 ta ixtisoslik bo'yicha ilmiy kengash faoliyatini hamda magistratura va doktorantura bo'yicha kadrlar tayyorlash ham yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Bahodir Jalolov va Oksana Chusovitina sport mahorati maktablarida xalqaro uslublarni joriy etish, o'quv va mashg'ulotlar sifatini oshirish masalalariga to'xtalib o'tildi.

Davlatimiz rahbari pedagoglar tayyorlash sifatini oshirish, adolatli baholash va rag'bat tizimini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

## ZARGARLIK TARMOG'INI YANADA RIVOJLANTIRISH VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA TAKLIFLAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va sotish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, tayyor mahsulotlar eksportini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar taqdimot qilindi.

Yurtimizda zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish uchun juda katta salohiyat bor.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda qazib olinayotgan oltinning atigi 6 foizi qayta ishlanib, bor-yo'g'i 78 million dollarlik eksport bo'layotganini qayd etib, tadbirkorlar uchun alohida sharoitlarga ega zargarlik zonalarini tashkil qilinishi, sohaga xomashyo yetkazish, mutaxassis tayyorlash, ishlab chiqarish zanjiri va sotish tizimini butunlay qayta ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlagan edi.

Shu bois Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Savdo-sanoat palatasi tomonidan tegishli takliflar ishlab chiqildi.

Jumladan, "O'zbekzargarsanoati" uyushmasi faoliyatini takomillashtirish, vakolatlarini

kengaytirish hamda boshqaruv tizimini qayta tashkil etish rejalashtirilgan.

Sohadagi ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Hunarmand" uyushmasi a'zolari uchun berilgan imtiyozlarni "O'zbekzargarsanoati" uyushmasiga a'zo bo'lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga ham tatbiq etish taklif etildi.

Shuningdek, 2026-yil 1-oktabrga qadar O'zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan hamda zargarlik sohasida foydalaniladigan asbob-uskunalar, qadoqlash va etiketkalash mahsulotlariga nisbatan bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'ining nol stavkasini qo'llash imkoniyati o'rganilmoqda.

Ishlab chiqarish, ko'rgazma va

savdo maydonlarini o'z ichiga olgan maxsus zargarlik markazlarini tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi. Bu boradagi pilot loyihalarni Toshkent shahri va Namangan viloyatlarida joylashtirish yuzasidan axborot berildi.

Zargarlik mahsulotlari eksportini ko'paytirish masalasiga to'xtalib o'tildi. Ikki tomonlama kelishish yo'li bilan mamlakatimiz hududida ishlab chiqarilgan zargarlik buyumlarini Amerika Qo'shma Shtatlariga "GSP" tizimi bo'yicha eksport qilish uchun bojxona to'lovlarining "nol" stavkasini belgilash taklif etildi.

Davlatimiz rahbari muhokama qilingan chora-tadbirlarni takomillashtirib, 2027-yilgacha bo'lgan davrda mahalliy zargarlik buyumlari ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqishga topshiriq berdi.

## DINIY-MA'RIFIY YO'NALISHDAGI MASALALAR KO'RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar haqida axborot berildi.

Barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini har tomonlama himoya qilish ko'p millatli O'zbekistondagi yangilanishlarning asosiy ustuvor yo'nalishidir. Shunday ajralmas huquqlardan biri — din erkinligidir. Mamlakatimizda e'tiqod qiluvchilar ibodat amallarini erkin-erkin ado etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Ta'kidlash joizki, yangi O'zbekiston siyosati nafaqat xalqimiz orasida, balki xalqaro jamoatchilikda ham munosib e'tirofqa sazovor bo'lmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Makkayu Madinada muqaddas haj amaliini ado etishga muvassar bo'lgan vatandoshlarimiz soni barmoq bilan sanoqli bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 15 mingdan ziyod o'zbekistonliklar muqaddas ziyoratga bordi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqimizga Qurbon hayiti tabrigi, Musulmonlar idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xolliqozar bilan telefon orqali suhbat qilib, hojilar holidan xabar

olgani bu yilgi haj mavsumining yorqin voqealaridan bo'ldi.

Qisqa muddat ichida O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash bo'yicha kompleks tizim yaratildi. Olimlarimizning boy merosini o'rganish va ommalashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat boshladi. Bunga misol sifatida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Hadis ilmi maktabi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish mumkin. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasida keng ko'lami yangilash va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Bugungi yig'ilishda buyuk mutafakkirlarning asarlarini aholi, ayniqsa, yoshlarimiz orasida keng o'rganish va targ'ib qilish zarurligi alohida ta'kidlandi. Zero, bu asarlarda islomning asl mohiyati, muqaddas dinimizning insonparvar g'oyalari mujassam. Bu, ayniqsa, hozirgi tahlikali davrda, dunyoda

turli kuchlar din mohiyatini buzishga va yoshlarni haqiqiy yo'ldan adashtirishga urinayotgan bir paytda juda dolzarb.

Bu jarayonda ayni kunlarda muqaddas Makkada haj ibodatini ado etayotgan yurtodoshlarimizning ham katta o'rni borligi ta'kidlandi. Yaqinda hojilar o'z mahallalarida yosh avlod tarbiyasi va ma'naviy kamolotiga munosib hissa qo'shishga tayyor ekanliklarini bildirib murojaat qabul qildilar.

Shuningdek, davlatimiz rahbari bu ishlarda xalqimiz va chet ellik mehmonlarni ajdodlarimizning bebaho merosi bilan keng tanishtirishga, ma'rifati islom g'oyalari ilgari surishga xizmat qiladigan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faol ishtirok etishi muhimligini ta'kidladi. Bugungi kunda tarixchi olim va ulamolalar bilan birgalikda markaz faoliyatini yangi mazmun bilan boyitish ishlari olib borilmoqda.

Markazning kelgusidagi rejalari to'g'risida axborot berildi.

O'ZA.

## O'zbekiston Respublikasining QONUNI

### Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 20-fevralda qabul qilingan Senat tomonidan 2024-yil 30-martda ma'qullangan

Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasi (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilinsin.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOEV Toshkent shahri, 2024-yil 19-iyun № O'RQ—932

## O'zbekiston Respublikasining QONUNI

### Davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga qo'shimchalar kiritish haqida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 2-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2024-yil 18-mayda ma'qullangan

Keyingi yillarda mamlakatimizda davlat mulkini tadbirkorlik subyektlariga va boshqa shaxslarga ijaraga berishning qonuniyligini ta'minlash yuzasidan tizimli choralar ko'rilmog'da.

Shu bilan birga amalda davlat mulkidan samarali foydalanmaslik va uni ijaraga berish tartibini buzish bilan bog'liq qoidabuzarliklar soni ham ortib bormog'da.

Bu, o'z navbatida, davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzganlik va vakolatli organlarning ushbu munosabatlarni tartibga solish bo'yicha ko'rsatmalarini bajarmaganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishini taqozo etmog'da.

Mazkur Qonun bilan davlat mulkini ijaraga berish tartibiga rioya etmaganlik, bo'sh turgan davlat mulkidan samarali foydalanish bo'yicha choralar ko'rmaganlik, shuningdek davlat mulkini ijaraga olgan tadbirkorlik subyektlarining va boshqa shaxslarning huquqlarini buzganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmog'da.

Ushbu Qonun davlat mulkidan samarali foydalanilishini, ijaraga oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlashga xizmat qiladi.

(Davomi 2-betda).

## INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHI

"Hech shubhasiz, insoniyat to'qnash kelayotgan iqlim bilan bog'liq keskin muammolar oqibatlarini yumshatish inson huquqlari sohasidagi xalqaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Shu bois Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining "Markaziy Osiyoda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi rezolyutsiyasini ishlab chiqish va ilgari surish bo'yicha tashabbusimizni qo'llab-quvvatlaydizlar, deb ishonaman".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Inson huquqlari bo'yicha IV an'anaviy Samarqand forumi ishtirokchilariga murojaatida aytilgan bu so'zlar joriy yil 13-14-iyun kunlari "Ekologik tahdidlar: o'zgarayotgan dunyoda inson huquqlarining istiqbol va barqaror yechimlarni izlash" mavzuiga bag'ishlab o'tkazilgan mazkur anjumaning ahamiyatini yanada oshirdi.



### Tafsilot



#### Inson huquqlari bo'yicha "Samarqand ruhi"

Davlatimiz rahbarining murojaatida dastavval yurtimizda ilk bor 2018-yilda o'tkazilgan Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi jahon amaliyotiga o'ziga xos "Samarqand ruhi"ni olib kirgani e'tirof etildi. Bu o'rinda bundan 6 yil oldin noyabr oyida "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligi yakunlari: zamonaviy tahdidlar va real voqealik"

mavzuida bo'lib o'tgan Inson huquqlari bo'yicha I Samarqand forumi haqida so'z bormog'da.

Shundan so'ng Inson huquqlari bo'yicha II Samarqand forumi "Yoshlar — 2020: global birdamlik, barqaror rivojlanish va inson huquqlari" mavzuiga bag'ishlab 2020-yil 12-13-avgust kunlari, o'z navbatida, "Inson huquqlari sohasida ta'lim" mavzuidagi Inson huquqlari bo'yicha III Samarqand forumi 2022-yil 5-6-dekabr kunlari tashkil etildi.

2-3

## O'zbekistonning ochiq ilm-fan siyosati

soha taraqqiyoti va millatimiz yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmog'da

Davlatimiz rahbari yaqinda Jizzax viloyati faollari bilan uchrashuvda nutq so'zlar ekan, "Dunyoni ochib berdim" deya ta'kidladi. Ko'pchilik qatori mening ham e'tiborimni tortgan bu so'zlar zamirida katta ma'no mujassam.

Bugungi kunda 100 ga yaqin mamlakatlar fuqarolari uchun O'zbekistonga vizasiz kirish tizimi yo'lga qo'yildi. 55 davlat fuqarolari uchun soddalashtirilgan elektron viza tartibi joriy etildi. Akademik Akmal Saidov ta'bir bilan aytganda: Birlashgan Millatlar Tashkilotiga 193 davlat a'zo bo'lsa, biror mamlakatda bunday ochiqlik siyosati yo'q. Prezident Shavkat Mirziyoyev yangi O'zbekistonnii dunyoga ochdi...

### Nuqtai nazar

Dunyoni ochish, dunyoga ochilish va buning natijalari, oqibatlari, afzalliklari haqida barcha soha va yo'nalishlar bo'yicha soatlab fikr yuritisa bo'ladi. Biz aynan ilm-fan borasidagi ochiqlik yuzasidan o'z mulohazamizni bildirmoqchimiz.

O'zbekiston o'zining yigirma besh yillik yaqin tarixida yopiq mamlakatlar sirasiga kirardi. Yopiqlik siyosati, ayniqsa, qo'shnilar bilan munosabatlarda ko'zga yaqqol tashlanardi. Chegaralar, yurtimizga kirish darvozalari qattiq berkitilgandi. Bu tartib-tamoyil nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki butun dunyo uchun ham bir xilda amal qilardi.

Jahon eshiklari, garchi biz uchun ochiq bo'lsa ham, unga olib boradigan o'zimizning eshiklar yopiq turardi. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, hatto qo'shni davlatlar bilan chegaralarga minalar qo'yildi. O'rtadagi kirish-chiqish darvozalariga olib boradigan yo'llargacha buzib tashlandi.

Bunday yopiqlik siyosati natijasida

To'grisini, tan olib aytish kerakki, yigirma besh yillik yopiqlik siyosatining mamlakatimizga, xalqimizga yetkazgan ziyon-zahmatining chek chegarasi yo'q.

Yopiqlik siyosati tufayli vaziyat shu darajaga borib yetdiki, olimlarimizning chet ellarga chiqishiga, xorijlik allomalarning O'zbekistonga kelishiga sun'iy to'siqlar qo'yildi. Buning oqibatida o'zbek ilm-fani dunyo ilm-fanidan uzilib qoldi. Jahon ilm-fan yutuqlaridan bexabarlik yuzaga keldi. Ilm-fanda loqaydlik, o'z qobig'iga o'ralib olish, chet tillarni bilmaslik, xalqaro standartlardan bexabarlik, jahon ilm-fanining eng katta markazlaridan ajralib, yakkalanib qolish holati yuz berdi. Ming afsuski, buning og'ir oqibatlarini tugatish halihamon qiyin kechmog'da.

O'zbekistonda mamlakatimiz rahbarining kuchli siyosiy irodasi bilan ochiq ilm-fan siyosati amal qilayotganiga endigina yetti yil bo'ldi. To'g'ri, yigirma besh yillik yo'qotishlarning o'rini qoplash uchun o'tgan davr kamlik qiladi, albatta.

2

O'zbekiston Respublikasining  
QONUNIDavlat mulkini ijaraga  
berish sohasidagiqonunchilikni buzganlik uchun  
javobgarlik kuchaytirilishi  
munosabati bilanO'zbekiston Respublikasining  
Ma'muriy javobgarlik  
to'g'risidagi kodeksiga  
qo'shimchalar kiritish  
haqida

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

1-modda. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995-yil, № 3, 6-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 9, 193-modda; № 12, 269-modda; 1996-yil, № 5-6, 69-modda; № 9, 144-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda; № 4-5, 126-modda; № 9, 241-modda; 1998-yil, № 3, 38-modda; № 5-6, 102-modda; № 9, 181-modda; 1999-yil, № 1, 20-modda; № 5, 124-modda; № 9, 229-modda; 2000-yil, № 5-6, 153-modda; № 7-8, 217-modda; 2001-yil, № 1-2, 23-modda; № 9-10, 165, 182-moddalar; 2002-yil, № 1, 20-modda; № 9, 165-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda; № 5, 67-modda; № 9-10, 149-modda; 2004-yil, № 1-2, 18-modda; № 5, 90-modda; № 9, 171-modda; 2005-yil, № 1, 18-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 9, 312-modda; № 12, 413, 417, 418-moddalar; 2006-yil, № 6, 261-modda; № 9, 498-modda; № 10, 536-modda; № 12, 656, 659-moddalar; 2007-yil, № 4, 158, 159, 164, 165-moddalar; № 9, 416, 421-moddalar; № 12, 596, 604, 607-moddalar; 2008-yil, № 4, 181, 189, 192-moddalar; № 9, 486, 488-moddalar; № 12, 640, 641-moddalar; 2009-yil, № 1, 1-modda; № 9, 334, 335, 337-moddalar; № 10, 380-modda; № 12, 462, 468, 470, 472, 474-moddalar; 2010-yil, № 5, 175, 179-moddalar; № 6, 231-modda; № 9, 335, 339, 341-moddalar; № 10, 380-modda; № 12, 468, 473, 474-moddalar; 2011-yil, № 1, 1-modda; № 4, 104, 105-moddalar; № 9, 247, 252-moddalar; № 12/2, 365-modda; 2012-yil, № 4, 108-modda; № 9/1, 242-modda; № 12, 336-modda; 2013-yil, № 4, 98-modda; № 10, 263-modda; 2014-yil, № 1, 2-modda; № 5, 130-modda; № 9, 244-modda; № 12, 341, 343-moddalar; 2015-yil, № 6, 228-modda; № 8, 310, 312-moddalar; № 12, 452-modda; 2016-yil, № 1, 2-modda; № 4, 125-modda; № 9, 276-modda; № 12, 383, 385-moddalar; 2017-yil, № 4, 137-modda; № 6, 300-modda; № 9, 510-modda; № 10, 605-modda; 2018-yil, № 1, 1, 4, 5-moddalar; № 4, 224-modda; № 7, 430, 431, 432-moddalar; № 10, 671, 673, 679-moddalar; 2019-yil, № 1, 1, 3, 5-moddalar; № 2, 47-modda; № 3, 161, 165, 166-moddalar; № 5, 259, 261, 267, 268-moddalar; № 7, 386-modda; № 8, 469, 471-moddalar; № 9, 591, 592-moddalar; № 10, 674, 676-moddalar; № 11, 787, 791-moddalar; № 12, 880, 891-moddalar; 2020-yil, № 1, 4-modda; № 3, 203, 204-moddalar; № 7, 449-modda; № 9, 539, 540-moddalar; № 10, 593, 596-moddalar; № 11, 651-modda; № 12, 691-modda; 2021-yil, № 1, 5, 7, 12, 13, 14-moddalar; № 2, 142-modda; № 3, 217-modda; № 4, 290, 293-moddalar; 4-songa ilova, № 8, 800, 802, 803-moddalar; № 9, 903-modda; № 10, 966, 967, 968, 973-moddalar; № 11, 1066-modda; 2022-yil, № 1, 1, 2-moddalar; № 2, 80, 81-moddalar; № 3, 215, 216-moddalar; № 4, 337-modda; № 5, 464, 465, 466, 467-moddalar; № 8, 787-modda; № 10, 981, 984-moddalar; № 12, 1188-modda; 2023-yil, № 3, 184, 185, 188, 189-moddalar; № 4, 265, 266, 268-moddalar; № 5, 319, 320-moddalar; № 7, 533, 534, 535, 537, 539-moddalar; № 8, 634-modda; № 10, 798-modda; № 11, 921, 923, 924-moddalar; № 12, 1004-modda; 2024-yil, № 1, 1, 5, 8, 9-moddalar; № 2, 102, 111, 115, 116-moddalar; № 3, 243, 245-moddalar) quyidagi qo'shimchalar kiritilsin:

1) quyidagi mazmundagi 2158-modda bilan to'ldirilsin:

## «2158-modda. Davlat mulkini ijaraga berish sohasidagi qonunchilikni buzish

Davlat mulkini belgilangan tartibda ijaraga shartnomasini tuzmasdan ijaraga berish, ijaraga olingan davlat mulkini qabul qilib olishda, ijaraga munosabatlarining obyektini hududiga kirishda va undan foydalanishda ijaraga oluvchiga asossiz ravishda to'sqinlik qilish yoki ijaraga berilayotgan davlat mulkining parametrlari va sonini ijaraga shartnomasida noto'g'ri ko'rsatgan holda davlat mulkini ijaraga berish, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy yuz chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi;

2) 245-moddaning birinchi qismi «2157» raqamidan keyin «2159» raqami bilan to'ldirilsin.

2-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi: hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiq lashtirsin; respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

4-modda. Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining  
Prezidenti Sh. MIRZIYOYEVToshkent shahri,  
2024-yil 19-iyun  
№ O'RQ—933O'zbekistonning ochiq ilm-fan siyosati  
soha taraqqiyoti va millatimiz yuksalishida muhim ahamiyat kasb etmoqda

O'zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan asos solingan ochiq ilm-fan siyosatining dastlabki natijalarini Samarqand davlat universiteti misolida keltirib o'tsak.

Bugungi kunda SamDU dunyoning 200 dan ziyod eng nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan aloqalarni o'rnatgan. Keyingi uch yilda Samarqand davlat universiteti talabalariga yuzdan ziyod xorijlik professor-o'qituvchilar dars o'tib kelmoqda. SamDUning 50 dan ortiq professor-o'qituvchilari xorijning nufuzli ta'lim dargohlarida faoliyat ko'rsatayotir.

SamDUning o'ndan ortiq doktorantlari xorijda dissertatsiya ishlarini himoya qildi. O'ndan ziyod xorijlik tadqiqotchilar ilmiy ishlarini SamDUda olib borishdi. Ular orasida universitetimiz tasarrufidagi Kengashlarda himoya qilganlar ham bor. SamDUning yuzdan ziyod bitiruvchilari xorijning nufuzli oliy o'quv yurtlari magistratura, doktoranturalarda tahsil olayotganligi e'tiborga sazovor.

Ayni paytda Samarqand davlat universitetida 500 ga yaqin tayanch doktorant (PhD), doktorant (DSc), stajyor tadqiqotchi va mustaqil izlanuvchilar ilmiy ish olib bormoqda. Bu tadqiqotchilarga xorijning nufuzli universitetlaridan va xalqaro tadqiqot markazlaridan 300 dan ziyod ilmiy rahbar va ilmiy maslahatchilar birlashtirilgan. Doktorantlarimiz xorijlik ilmiy rahbarlari bilan bir qator xalqaro grant va loyihalarda ishtirok etib, yuqori natijalarni ko'lgaga kiritmoqda. So'nggi yillarda SamDUda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda 15 xalqaro markaz va qo'shma laboratoriya tashkil etildi. Xalqaro markazlarda til, madaniyat o'rgatilayotgan bo'lsa, qo'shma laboratoriyalarda dolzarb mavzudagi tadqiqotlar olib borilmoqda.

Samarqand davlat universiteti Kompyuter ilmlari va texnologiyalari fanlari kafedrasida dotsenti Sahobiddin Axatqulovga Malayziya milliy universiteti tomonidan berilgan PhD falsafa doktori ilmiy darajasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan DSc fan doktori ilmiy darajasiga tenglashtirildi. Yadro fizikasi va astronomiya kafedrasida o'qituvchisi

Dilshod Hakimov Belarus Milliy fanlar akademiyasi Birlashgan energiya va yadro tadqiqot institutida PhD dissertatsiyasini himoya qildi. Xuddi shu laboratoriyaning katta ilmiy xodimi Shahboz Hasanov Xitoy Fanlar akademiyasining Zamonaviy fizika institutida dissertatsiya ishini yoqladi, PhD diplomiga ega bo'ldi. O'zbek tilshunosligi kafedrasida tadqiqotchisi, turkiyalik Bayram Bilir PhD dissertatsiyasini SamDU professori, tanliq turkolog olim Jo'liboy Eltzarov rahbarligida tayyorladi va yoqladi.

Samarqand davlat universiteti professori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, "El-yurt hurmati" ordeni sohibi Muslihiddin Muhiddinov monografiyasi Germaniyaning "Lambert" nashriyotida chop etildi.

Samarqand davlat universiteti Biokimyoy instituti professori Xurshid Bozorov Xitoyning "Tyanshan" davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Mazkur nufuzli mukofot Shinjon-Uyg'ur avtonom muzofotining iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga hissa qo'shgan xorij fuqarosiga taqdim etiladi.

Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti direktori, biologiya fanlari doktori Toshpo'lat Rajabov Islandiyaning Qishloq xo'jaligi universiteti qoshida YUNESKO shafeligida tashkil etilgan Yerni qayta tiklash xalqaro dasturida qatnashib, dunyoning 30 ga yaqin davlatlaridan kelgan olimlarga ma'ruza o'qidi.

Muhandislik fizikasi instituti dotsenti Akmal Safarov AQShning dunyo reytingida yetakchi bo'lgan Massachusetts texnologiya institutida stajirovka o'tadi. Mazkur institut olimlari bilan xalqaro grant loyihasida ishtirok etmoqda.

Keyingi yillarda SamDU olimlari tomonidan "Scopus" ma'lumotlar bazasidagi jurnallarda 1200 ga yaqin maqolalar nashr qilindi. Olimlarimizning 50 dan ziyod monografiyalari xorijning nufuzli nashriyotlarida chop etildi.

SamDU tomonidan hamkorlik o'rnatilgan xorijiy oliy o'quv yurtlari bilan nafaqat professor-o'qituvchilar, balki talabalar almashinuv dasturlariga ham og'ishmay amal qilinmoqda. SamDUga Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Germaniya, Fransiya, Polsha, Turkiya, Buyuk Britaniya va boshqa davlatlardan

talabalar kelib tahsil olayotganligi fikrimizning yorqin dalili.

O'z navbatida, SamDU talabalarining Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Fransiya, Germaniya, AQSh kabi bir qator mamlakatlarda o'qib, tajriba almashayotgani ham O'zbekistonda barqaror bo'lgan ochiqlik siyosatining natijalaridir.

Samarqand davlat universiteti bakalavriat bosqichini mazkur o'quv yilida tamomlagan matematika fakulteti talabalari Abdulaziz Komilov, G'ozal Boboxonova va Iffixor Yangiboyev Italiyaning Nazariy fizika xalqaro ilmiy markazi hamda L'Aquila universitetiga, Bobomurod Abdurahmonov AQShning Kent davlat universiteti magistraturasiga muddatidan oldin grant asosida o'qishga qabul qilindi. Muhandislik fizikasi instituti talabalari Ozoda Inoyatullo va Nafisa Rahmonova xalqaro "UNISAT" dasturida ishtirok etib, "CubeSat" nanosun'iy yo'l-doshini uchirishga muvaffaq bo'ldi.

Samarqand davlat universitetiga keyingi vaqtda Turkiya, Rossiya, Fransiya, Hindiston, AQSh, Vengriya, Italiya, Finlyandiya, Bangladesh, Tojikiston hamda Yevropa Ittifoqi davlatlarining O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchilari tashrif buyurganini alohida ta'kidlamochim. O'zaro muloqotlarda asosiy e'tibor ta'lim va ilm-fan yo'nalishlarida aloqalarni o'rnatishga qaratildi. Har qanday rasmiyatchilikdan xoli bo'lgan bu uchrashuvlar o'zining ijobiy natijalarini bera boshladi.

Samarqand davlat universitetida Janubiy Koreyaning Yeungnam universiteti bilan hamkorlikda "Inson resurslarini boshqarish va Saemaul ta'limoti" ilmiy-tadqiqot markazi faoliyat ko'rsatmoqda. Markazni ochishdan asosiy maqsad inson resurslarini boshqarish va mahalla tizimi rivojlanishi bo'yicha yangi fanlararo ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, inson resurslari hamda mahalla taraqqiyotini boshqarish bo'yicha respublika va xalqaro grantlarda ishtirok etish, Yeungnam universiteti tomonidan o'tkazilayotgan "Saemaul" o'quv dasturlarini kreativ qo'llash orqali mahalla boshqaruvi sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishdan iborat.

Yopiqlik siyosati hukm surgan davrlarda biz taqdir taqozosi bilan xorijga borib qolgan vatandoshlarimizga ham tuhmat toshlarini otdik. Ularning ilmiy salohiyatidan foydalanish o'rniga kamsitishga harakat qildik. Bundan ular emas, o'zimiz zarar ko'rdik.

AQSning Shimoliy Karolina universiteti professori, Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar 2017-yilda Qirg'izistonga tashrif davomida "Men yigirma besh yildan buyon ota makonimiz O'zbekistonga borishni orzu qilaman" degan edi.

Ulug' olimning niyatlari ijobat bo'ldi. Biz Aziz Sanjarni O'zbekistonga, Samarqand davlat universitetiga taklif qildik. Buyuk olim bilan o'rnatilgan munosabatlarni tufayli u SamDU talabalariga ma'ruzalar o'qidi. Qisqa davr ichida universitetimizga uch marta keldi.

Bugun SamDU Biokimyoy institutida olim nomidagi laboratoriya faoliyat ko'rsatmoqda. SamDU talabalari uchun Aziz Sanjar stipendiyasi ta'sis etilgan. Universitetimizning bir necha tadqiqotchilari uning rahbarligida ilmiy ish olib bormoqda.

AQSning Texas universiteti Nanotexnologiyalar instituti direktori o'r'inbosari, dunyoga mashhur fizik olim, professor Anvar Zohidov bugungi kunda SamDU Muhandislik fizikasi institutida tashkil qilingan Markaziy Osiyoda yagona Kvant markaziga ilmiy maslahatchilik qilmoqda.

Anvar Zohidov bilan suhbatlarimizdan birida u menga

Ilm-fan dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni yuksaltiradi. Bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlaydi. Yurtimizda olib borilayotgan "ochiq eshiklar" siyosatida ilm-fanga ustuvorlik berilayotgani biz, olimlarga faxr-iftixor bag'ishlaydi. Bundan ming yillar oldin ham Samarqandga dunyoning to'rt qit'asidan kelgan karvonlarda olimlar, ilm toliblari va kitoblar bo'lgan. Shuning uchun ham ilm-fan cheksiz rivojlangan.

Bugun ham shu an'ana qayta ko'zga tashlanmoqda. Ya'ni davlatimiz rahbari ta'bir bilan aytganda: "Jahon sivilizatsiyalari chorrahasida joylashgan bu betakror shahar asrlar mobaynida Sharq va G'arbni o'zaro bog'laydigan, savdo, ilm-fan va madaniyatning chinakam markazi bo'lib kelgan. Mashhur Rimga tengdosh bo'lgan ushbu boqiy zamin ulkan saltanatlar poytaxti, ulug' alloma va mutafakkirlar, aziz-avliyolar zotlar kamol topgan yurt sifatida bizga hamisha g'urur bag'ishlaydi. "Yer yuzining sayqali" deya shuhrat qozongan, Sharqning ikki buyuk Uyg'onish davri rivojiga ulkan hissa qo'shgan Samarqand bugungi kunda jahonning zamonaviy sayyohlik markazlaridan biriga aylanib bormoqda".

Rustam XOLMURODOV,  
Samarqand davlat universiteti rektori, O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, Oliy Majlis Senati a'zosi.

## INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO



Shu tariqa inson huquqlari sohasidagi eng dolzarb muammolarga bag'ishlangan Samarqand forumlarini o'tkazish yaxshi an'ana tusini oldi. Binobarin, Inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumining kelib chiqish tarixi ushbu an'anaviy xalqaro anjuman tashabbuskori shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ekanligini yaqqol tasdiqlab turibdi.

Prezidentimiz Inson huquqlari bo'yicha IV an'anaviy Samarqand forumi ishtirokchilariga murojaatida ta'kidlaganidek, "Ekologik inqiroz Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi eng asosiy to'siq va tahdidga aylandi, global miqyosda qashshoqlik bilan bog'liq muammolar ko'paymoqda, insonning sog'liq, toza suv, oziq-ovqat va uy-joyga bo'lgan huquqlarini ta'minlash xavf ostida qolmoqda. Bundan, avvalo, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam, xususan, nogironligi bo'lgan shaxslar, keksalar, ayollar va bolalar jiddiy aziyat chekmoqda".

Samarqand forumi ishtirokchilari o'z chiqishlarida iqlim o'zgarishining muhim

masalalariga muntazam ravishda qaratib kelayotgan yuksak e'tibori va bu borada ilgari surgan tashabbuslari uchun O'zbekiston Prezidentiga o'z minnatdorliklarini bildirdilar. O'z navbatida, so'zga chiqqanlarning barchasi xalqaro hamjamiyatni O'zbekiston tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga chaqirdi.

Boshqacha aytganda, Inson huquqlari bo'yicha IV an'anaviy Samarqand forumi davomida jahon amaliyotida o'ziga xos o'r'in egallab ulgurgan "Samarqand ruhi" yana bir bor o'zini baralla namoyon etdi. Binobarin, an'anaviy Samarqand forumi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2030-yilgacha mo'ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari kun tartibini ro'yobga chiqarish bo'yicha sa'y-harakatlar butun jahonda davom etayotganining yana bir amaliy isboti bo'ldi.

Qolaversa, Samarqand forumida BMT va uning tuzilmalari hamda boshqa xalqaro tashkilotlardan nufuzli vakillar qatnashgani, shubhasiz, ayni yo'nalishda global hamkorlik muhimligi e'tirof etilayotganining yorqin ifodasidir.

Yana bir ahamiyatli jihat — forumda iqlim o'zgarishining inson huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatishini yumshatish bo'yicha turfa tamoyil va yondashuvlar, shuningdek, bu sohada turli mamlakatlardagi ilg'or tajriba va amaliyotlar bilan o'zaro almashinish asosida aniq tavsiva va yechimlar ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Bunday yondashuv O'zbekiston Prezidentining: "Parij bitimida ta'kidlanganidek, iqlim o'zgarishiga qarshi choralar ko'rilayotganida, davlatlar inson huquqlarini hurmat qilishi, rag'batlantirishi va himoya qilishi, asosiy diqqat-e'tiborini mazkur sohadagi majburiyatlarini bajarishga qaratishlari lozim", degan fikrlari bilan uyg'un va hamohangdir.

"Kelajak avlodlar taqdiri  
uchun barchamiz ulkan  
mas'uliyatni o'z zimmamizga  
oladigan vaqt keldi"

Prezident Shavkat Mirziyoyevning bu da'vati aynan Inson huquqlari bo'yicha IV an'anaviy Samarqand forumi ochilishida yangirangi bejiz emas. Chunki ushbu forum ishtirokchilariga hozirjavoblik bilan yo'llangan murojaatning o'ziyoq iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq inson huquqlari muammlariga yechim topish masalasi O'zbekiston liderining alohida e'tibor markazida turganidan dalolatdir.

Bu galgi Samarqand forumi sayyoramiz miqyosida uchta inqiroz — iqlim o'zgarishi, bioxilmaxillik yo'qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchaygan keskin ekologik vaziyatda bo'lib o'tdi. Shu ma'noda, forumning asosiy maqsadi — iqlim o'zgarishlarining inson huquqlariga ta'siri bilan bog'liq masalalarni keng ko'lamda va axborotlar tahlili negizida atroflicha muhokama qilishdan iborat bo'lgani tabiiy.

O'zbekiston Prezidenti Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumiga ko'plab xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar vakillari, turli davlatlar, ilmiy doiralari va biznes sohasi namoyandalari taklif qilinganini alohida ta'kidlagani mullaqo

asosidir. Haqiqatan ham, forumda jami 200 nafardan ortiq xalqaro, mintaqaviy, xorijiy va milliy tashkilotlar vakillari oflayn va onlayn tarzda ishtirok etdi. Ular orasida BMTning yuqori darajadagi 4 nafar mansabdor shaxsi, 7 ta xalqaro tashkilot, 8 ta mintaqaviy tashkilot, 14 ta xorijiy davlat vakillari va turli aloqador institutlarning 30 nafar eksperti, 7 ta davlatning ilmiy-tadqiqot muassasalari, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 20 ga yaqin diplomatik korpuslar vakillari bor edi.

Shuningdek, forumda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari a'zolari, vazirliklar rahbarlari hamda oliy ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati vakillari qatnashdi. Forum davomida atrof-muhit muammolari va global iqlim o'zgarishining ijtimoiy va iqtisodiy huquqlarga ta'siri borasida 70 dan ziyod ekspertlar ma'ruzalari tinglandi.

Binobarin, bunday global muammolarga samarali yechimlar topishda o'zaro jam bo'lib va barcha bosqichdagi sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirgan holda ish tutish juda muhimdir. Xuddi shu bois Samarqand forumida ekologiya muammolarining inson huquqlariga ta'sirini o'rganish va ushbu salbiy holatlarga barham berish uchun global ko'lamda maqbul yechimlar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Forum yakuni:  
Samarqand deklaratsiyasi

Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi ekologiya va inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq xavf-xatarlar, hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ham ta'sir ko'rsatayotgan murakkab va o'ta mas'uliyatli sharoitda bo'lib o'tdi. Shuning uchun ishtirokchilar ekologik muammolarga faqat mintaqaviy darajada yondashish bilan cheklanmay, balki bu global tahdidlarning o'ziga xos jihatlarga xalqaro hamjamiyat e'tiborini qaratish istiqbollari ham atroflicha muhokama qilindi.

Xususan, BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Folker Tyurk o'zining

## Qonunchilik palatasida

## Cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi birgalikda kurashish lozim

Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qo'mitasi tomonidan "Jahon cho'llanishga va qurg'oqchilikka qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlab seminar o'tkazildi. Unda dastlab mazkur sananing ahamiyati, mamlakatimizda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarining natijadorligi va samaralari haqida ma'lumot berildi.

Ma'lum qilinganidek, har yil 17-iyun — Jahon cho'llanishga va qurg'oqchilikka qarshi kurashish kuni sifatida butun dunyoda keng nishonlanadi. 1994-yil xuddi shu sanada BMTning Cho'llanishga qarshi kurashish konvensiyasi qabul qilingan. O'zbekiston Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida birinchi qatorida ushbu konvensiyaga a'zo bo'lgan.

Mutaxassislar fikricha, mamlakatimiz hududining 70 foizi yoki 31,4 mln. gektari tabiiy sho'rlanishga, qum ko'chkilari, changli bo'ronlar va garmellar tarqalishi ta'siriga uchragan qurg'oqchilik va yarimqurg'oqchilik maydonlaridan iborat. Qariyb 10 mln. gektar yaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj.

Tadbirda so'ngi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, cho'llanish va qurg'oqchilikning oldini olish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan alohida qayd etildi. Sohaga oid munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy baza yaratilib, doimiy takomillashtirilib borilayotganiga urg'u berildi.

Davlatimiz rahbarining tegishli Farmoni bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konvensiyasi respublikada cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va ihotada o'rmonlarni ko'paytirishga qaratilgan muhim hujjat bo'ldi.

Bugungi kunda yurtimizda cho'llanishning oldini olish, o'rmonlarni qayta tiklash va himoya o'rmonlarini barpo etish bo'yicha olib borilayotgan izchil sa'y-harakatlar ishtirokchilar

diqqat-e'tiborida bo'ldi. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida respublika hududida yiliga 200 mln. tup daraxt va buta ekilib, bog'lar, jamoat parklari, "yashil belbog'lar" barpo qilinmoqda.

Birgina o'tgan davrda Orol dengizining suvi qurigan tubi va Orolbo'yi mintaqasidan ko'tarilayotgan qum, tuz va chang zararlarni solib berish, u esa tartibga solish chorasini ko'rish kerak. Biroq bunday vaziyatda qanday xabar beriladi va u tartibga solinishi yuzasidan aniq bir mexanizm va qonuniy yechim mavjud emas. Ayrim qonun hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tushuntirish berilgan bo'lsa-da, davlat organlari hamda muassasalarida ularni amalga oshirish va nazorat qilishning aniq mexanizmlari belgilanmagan.

Qolaversa, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha yagona amaliyotni shakllantiruvchi vakolatli organ ham yo'q edi. Prezidentimiz tomonidan 5-iyun kuni imzolangan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning aniq tartibi belgilandi. Eng muhimi, mazkur hujjat bilan manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va bunday vaziyatning oldini olishga qaratilgan xabarname va deklaratsiya berish mexanizmlari mustahkamlab qo'yildi.

Birinchiidan, xodim bevosita rahbariga, rahbarlar esa korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga yoki kadrlar bo'linmalariga xabar berib, ushbu manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralarini ko'radi. Ya'ni bunda xodim o'zi dush kelgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini tartibga soladi.

Ikkinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashish yoki kadrlar bo'linmalari manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi. Bunda kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvining oldini olinadi.

Buning uchun muntazam ravishda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar, davlat xaridi takliflari, komissiya bayonnomalari, shartnomalar, tijorat tashkilotlarining affilangan shaxslari ro'yxatlari, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish moduli, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi

"Xalq so'zi".

## Manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda muhim huquqiy asos

Kundalik hayotimizda manfaatlar to'qnashuvi haqida ko'p eshitganmiz va bunday holatlarga duch ham kelganmiz. Bu jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri bo'lib, u bor joyda sohalar rivojlanish o'rniga orqaga ketadi, adolatsizlik paydo bo'ladi.

## Yangi qonun

Manfaatlar to'qnashuvi, bu — shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaatlar (xizmat) majburiyatlarini o'z ichiga olib, xolis bajarishga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat hamdir. O'z vaqtida bunga qarshi keskin kurashilsa, korruptsiya barham topadi, ish faoliyatida o'zgarish, rivojlanish bo'ladi.

Shu bois manfaatlar to'qnashuviga duch kelinganda bevosita rahbariga xabar berish, u esa tartibga solish chorasini ko'rish kerak. Biroq bunday vaziyatda qanday xabar beriladi va u tartibga solinishi yuzasidan aniq bir mexanizm va qonuniy yechim mavjud emas. Ayrim qonun hujjatlarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida tushuntirish berilgan bo'lsa-da, davlat organlari hamda muassasalarida ularni amalga oshirish va nazorat qilishning aniq mexanizmlari belgilanmagan.

Qolaversa, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solish bo'yicha yagona amaliyotni shakllantiruvchi vakolatli organ ham yo'q edi.

Prezidentimiz tomonidan 5-iyun kuni imzolangan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonun bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tartibga solishning aniq tartibi belgilandi. Eng muhimi, mazkur hujjat bilan manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va bunday vaziyatning oldini olishga qaratilgan xabarname va deklaratsiya berish mexanizmlari mustahkamlab qo'yildi.

Birinchiidan, xodim bevosita rahbariga, rahbarlar esa korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalariga yoki kadrlar bo'linmalariga xabar berib, ushbu manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralarini ko'radi. Ya'ni bunda xodim o'zi dush kelgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini tartibga soladi.

Ikkinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashish yoki kadrlar bo'linmalari manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi. Bunda kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvining oldini olinadi.

Buning uchun muntazam ravishda ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar, davlat xaridi takliflari, komissiya bayonnomalari, shartnomalar, tijorat tashkilotlarining affilangan shaxslari ro'yxatlari, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari hamda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tadbirkorlarni ro'yxatdan o'tkazish moduli, Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi

manbalari o'rganiladi. Shundan so'ng, aniqlangan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi vaziyatidan kelib chiqib, ularni tartibga solish choralarini ko'riladi.

Qonunda belgilangan tartibga solish bo'yicha choralar mazmunan xodimning mazkur vaziyatda qaror qabul qilishdagi ishtirokini yoki ta'sirini cheklashga qaratilgan. Misol uchun, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunda belgilangan umumiy talabdan kelib chiqib, manfaatlar to'qnashuvi natijasida yuzaga kelgan vaziyatlar bo'yicha tartibga solish choralarini ko'rilmasligi huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur hujjat bilan esa to'g'ridan-to'g'ri bu turdagi manfaatlar to'qnashuvi vaziyatida kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda yoki majburiy chetlashtirish chorasi ko'rilishi kerakligi belgilangan diqqatga sazovor.

Yana bir muhim masala. Agar davlat xizmatchisi tomonidan o'zi nazorat qiladigan obyektlarda yaqin qarindoshi ishlaydigan bo'lsa, ushbu holatning oldini olish uchun u bu haqda manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyasida ko'rsatishi va yaqin qarindoshiga taalluqli masalalar bo'yicha nazoratni amalga oshirmaslik choralarini ko'rish lozim. Mazkur holatlar to'g'risida xabar berilmagan yoki tartibga solinmagan taqdirda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar bermaganligi uchun bazaviy hisoblash miqdorining 3 — 5 baravarigacha jarima belgilanadi. Ushbu xabarlar tartibga solinmagan taqdirda mansabdor shaxsga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 5 — 10 baravarigacha jarima qo'llaniladi.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qaror qabul qilingan yoki bitim tuzilgan taqdirda bu sud tartibida haqiqiy emas, deb topiladi. Olingan foyda esa davlat daromadiga o'tkaziladi.

Raqamlarga murojaat qilsak, 2022-2023-yillarda davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan 4,5 mingga shartnomada manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan. Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tomonidan tizimdagi tashkilotlarda 141 mlrd. so'mlik 2 720 shartnoma haqiqatda manfaatlar to'qnashuvi mavjud holatda tuzilgan. 9 shartnoma 3 mlrd. so'mga qimmat narxda imzolangan.

Qonunga muvofiq, endilikda "E-anticor.uz" platformasida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va onlayn monitoring qilish imkonini beruvchi elektron modul ishga

tushirilishi ayni muddaodir. Bu, o'z navbatida, kelgusida bu kabi holatning oldini olish va ularni joyida bartaraf etishda qo'l keladi.

Davlat organlari va tashkilotlar mansabdor shaxslarining tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etishi va ko'plab vaziyatlarda ular foydasiga qaror qabul qilinishi bois manfaatlar to'qnashuvi holatlarini keltirib chiqarayotir. Bu, asosan, davlat xaridlarida yaqqol namoyon bo'layotir.

Shundan kelib chiqib, endilikda bunday shaxslar qonunga muvofiq tijorat tashkilotlarining ta'sischi qatnashuvini ta'minlash, bunda aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilishi mumkinligi belgilab qo'yildi.

Hujjat bilan o'zi nazoratini olib boradigan tashkilot, jumladan, kuzatuv kengashi faoliyatini nazorat qilish manfaatlar to'qnashuviga sabab bo'lishi inobatga olinib, shu kabi nazoratni amalga oshiruvchi shaxslarning ushbu tashkilotdagi ulushlarga egalik qilishi, boshqaruv organi a'zolariga ishtirok etishi cheklanayotgani ham muhim yangiliklardan biri bo'ldi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning o'zi bilan mehnat shartnomasi tuzatilgan yoki xizmatdan bo'shatilgan xodim ikki yil ichida oxirgi ish joyida o'zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoxud ularning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korruptsiyaga qarshi nazorat bo'linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinish tartibi ham qonunda o'z ifodasini topdi.

Qonun bilan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishda maxsus vakolatli davlat organi etib belgilandi va unga ma'muriy bayonnomalarni tuzish vakolati ham berildi. Davlat tashkilotlari esa o'z tizimidagi manfaatlar to'qnashuvi holatini o'z vaqtida aniqlash va tartibga solish bo'yicha zarur choralarini ko'rishda mas'ul etib belgilandi.

Ishonchimiz komilki, ushbu qonun davlat tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, aniqlash va tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy qilish, uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash hamda mamlakatimizning korruptsiyaga qarshi kurashga oid xalqaro reytingdagi ko'rsatkichlari oshishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Javlonbek ERGASHEV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## QISQA SATRLARDA

## Aerodromlarda nazorat: tendensiyalar va dolzarb savollar

Toshkent shahrida Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (XFAT) tomonidan "Aerodromlardan foydalanish va xavfsizligini nazorat qilish" mavzuida seminar o'tkazildi.



Mazkur anjumanda XFATning Yevropa va Shimoliy Atlantika mintaqaviy byurosi hamda Davlatlararo aviatsiya qo'mitasi (DAQ) vakillari va xorijiy ekspertlar ishtirok etdi. Anjumanning asosiy maqsadi — aerodromlarda nazoratni ta'minlash yo'nalishidagi tendensiyalar va dolzarb savollarning muhokamasi hamda tajriba almashishdir.

## Toshkentdan Bo'stonliqqacha bo'lgan yo'lda yangi tunnel ochildi



Toshkent shahridan Bo'stonliqqacha Yangi O'zbekiston yo'li tomondan borishda va qaytishda yangi qo'shimcha tarmoq yo'llaridagi qurilishning birinchi bosqichi tugallandi.

Bu haqda IIV Yo'l harakati xavfsizligi xizmati xabar berdi. Qayd etilishicha, mazkur svetoforlar va tirbandlik xizmatlari harakat uchun ochildigan tunnelda shu yil 16-iyun kuni soat 10:00 dan boshlab transport vositalarining harakatlanishiga ruxsat berilgan. U Toshkent shahrini Bo'stonliq tumanidagi Chimyon tog'lari va Chorvoq suv ombori bilan bog'laydi.

## 600 nafar haydovchi Latviyaga ishga jalb etiladi

"Dunyo" axborot agentligi xabariga ko'ra O'zbekiston elchixonasi ko'magida 10 — 17-iyun kunlari Latviyaning transport va logistika sohasidagi yirik "Kreiss" kompaniyasi vakillarining O'zbekistonga ishchi tashrifi tashkil etildi.

Tashrif davomida Latviya tomoni Transport vazirligi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hamda Xalqaro avtomobil tashuvchilar uyushmasi rahbariyati bilan muzokaralar o'tkazdi va "Kreiss" hamda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi o'rtasida Latviyaga 600 nafar haydovchini uyushgan tarzda ishga jalb etish bo'yicha kelishuvga erishildi.

"Vatanparvar" tashkiloti bilan ushbu uyushmaga tegishli avtomobillar platformasida o'zbekistonlik yuk mashinalari haydovchilarini tayyorlash uchun maxsus simulyatorlar tashkil qilish bo'yicha memorandum imzolandi.

## 40 yillik poliklinika mukammal ta'mirlanmoqda



O'zbekiston tumanining "O'qchi" mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 74-oilaviy poliklinika 12 mingdan ziyod aholiga xizmat ko'rsatadi. Bu yerda investitsiya dasturi asosida 2,3 mlrd. so'mlik mukammal ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilyapti.

Aytish joiz, "ish staji"ga 40 yil bo'lgan oilaviy poliklinika avval 100 qatnovga mo'ljallangan bo'lsa, endilikda qo'shimcha 10 dan ortiq tibbiyot xonalari bunyod etilib, kunlik qatnovni 150 taga yetkazish imkoniyati yaratilayotir. Shuningdek, muassasada 10 o'rimga mo'ljallangan kunduzgi yotib davolanish bo'limi tashkil etilmogda.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati O'zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi

Vitaliy Vasileyevich FENning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

## HAMKORLIKNING USTUVOR YO'NALISHI

videomurojaatida qayd etganidek, "agar biz qat'iyat bilan harakat qilmasak va aynan hozirdanoq istiqbolli sa'y-harakatlarga kirishmasak, atrof-muhit degradatsiyasining halokatli oqibatlari sayyoramizdagi obod hayotni chaqmoq tezligida barbot qilishda davom etadi. Bu borada faqat tenglik, adolat va qadr-qimmatni e'zozlashga tayanadigan inson huquqlari tizimiga asoslangan harakatlarga bizga juda zarur bo'lgan yechimlarni taqdim etishi mumkin".

YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byurosi direktori Matteo Mekachchining e'tirof etilishicha, "Ekstremal ob-havo hodisalari allaqachon yashash, ishlash

Shu asosda hukumat aholining, jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarning ehtiyojlarini qondiradigan axborot siyosatini ishlab chiqishi mumkin. Bunday loyihalar YXHTning butun mintaqasidagi boshqa dala missiyalari bilan birgalikda amalga oshirilyapti".

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bosh kotibi o'rinbosari Nurlan Seitimov onlayn chiqishida qayd etganidek, "Ekologiya sohasida ongli shaxsni tarbiyalash sayyoramiz hayotini saqlab qolishning muhim shartlaridan biridir. Bunda ta'lim va madaniyat dasturlarida ekologik tarbiya muhim o'rin egallashi lozim. Bu

fikricha, "bu masalalar juda muhim va kelajak avlod uchun hozir yanada yaxshi kelajak qurish yo'lidagi hech kim ortda qolishi kerak emas".

YXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqshartiruvchisi, missiya rahbari, elchi Antti Karttunen haqli ravishda e'tirof etganidek, "Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi ekologik muammolarni muhokama etish va hal qilish uchun muhim muloqot maydoniga aylandi. Endilikda har bir insonning huquqlari ishonchli ta'minlangan, sayyoramizni kelgusi avlodlarimiz uchun asrab-avaylashga muvaffaq bo'lgan istiqbolimizni ta'minlashimiz uchun barchamiz hamjihatlikda ish olib borishimiz zarur bo'ladi".

Yana bir muhim masala, forum ishining nihoyasida yakuniy hujjat — "Iqlim o'zgarishlari sharoitida inson huquqlarini global himoya qilish: barqaror kelajak yo'lidagi majburiyatlar va sa'y-harakatlar to'g'risidagi Samarqand deklaratsiyasi" loyihasi ishlab chiqilgani bo'ldi. Ishtirokchilar ushbu loyihani O'zbekiston Prezidenti murojaatida ilgari surilgan tashabbus va tavsiyalar hamda forum davomida kelib tushgan 150 dan ortiq amaliy takliflar asosida maromiga yetkazilgan holda qabul qilish uchun ovoz berildi.

Forum tavsiyalarini BMT Bosh kotibiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga taqdim etishga kelishib olindi. Anjumani ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi va BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqlarida mazkur forumni o'tkazish tashabbusini ilgari surganligi uchun minnatdorlik bildirdilar.

## Samarqand zaminida "Inson huquqlari bog'i" barpo etildi

Inson huquqlari bo'yicha IV Samarqand forumi doirasida bir qator yondosh tadbirlar ham o'tkazildi. Shulardan biri "Inson huquqlari himoyasi uchun" ko'krak nishoni sovrindorlarini taqdirlash marosimidir.

Turkiya Respublikasi Bosh ombudsmani Sherif Malkoch, Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyasi Kotibiyati ijrochi direktori, professor Nura bint Zaid al-Rashud, O'mon Sultonligining Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi raisi Rashid Hamad Humaid Albalushi, Qatar davlati Inson huquqlari bo'yicha Milliy qo'mitasi raisi Maryam bint Abdullah al-Attiya ushbu mukofot bilan taqdirlandilar. Ko'krak nishoni o'z sohiblariga tantanal ravishda topshirildi.

Shuningdek, forum doirasida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori bilan ayrim xalqaro tashkilotlar va hamkor davlatlar vakillari o'rtasida yuzmaz yuz uchrashuvlar ham bo'lib o'tdi. Ushbu muzokaralar asosida o'zaro hamkorlikning joriy holati tahlil etildi va kelgusidagi rejalar muhokama qilindi.

Xulosa o'rnida, forumning ikkinchi kuni ishtirokchilar tomonidan Samarqand zaminida "Inson huquqlari bog'i" barpo etilganini alohida aytishni istardik. Chunki bir tomondan, ko'chat ekish va bog' yaratish har bir inson uchun savobli amaldir. Ikkinchi tomondan, ekologik muammolar inson huquqlariga ko'rsatayotgan tahdidlarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan takliflar ishlab chiqish uchun dunyoning turli hududlaridan tashrif buyurgan hamkasblarimiz o'zaro hamjihatlikda ko'chatlar ekib, g'amxo'rlikka muhtoj sayyoramiz bag'rida yangi va mo'jiz bir boqqa asos soldi. Bu sa'y-harakat zaminida ham o'ziga xos ibratli ramz mujassam, deb o'ylayman.

Akmal SAIDOV,  
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori.



va o'qish uchun xavfsiz joylarni izlayotgan millionlab odamlarning ko'pincha o'z uylaridan uzoqda bo'lgan joylarga migratsiya qilishi va ko'chishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun hayotni o'zgartiruvchi bunday muammolarga javob berish barcha odamlarning huquqlari va ehtiyojlarini hurmat qilish yo'lidagi muhimdir".

YXHT Iqtisodiy va ekologik faoliyati muvofiqshartiruvchisi, elchi Bakit Jusupovning videomurojaatida ma'lum qilinishicha, "hozirgi kunda YXHTning O'zbekistondagi loyihalari muvofiqshartiruvchisi mamlakatdagi iqlim bilan bog'liq muammolar xaritasini tuzaypti.

sohada to'plangan tajribalarni hozirgi zamon ilm-faniga xos bilimlar bilan uyg'unlashtirish, shubhasiz, jamiyatda tabiat va bioxilmaxillikni asrab-avaylashga oid qadriyatlar tizimini shakllantirish hamda atrof-muhit bilan hamjihatlikda yashash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi".

Qatar Inson huquqlari milliy qo'mitasi bosh kotibi Sulton bin Hasan al-Jamoliy tobora global ko'lam kasb etib borayotgan Samarqand forumida ekologik muammolar hal qilinishining ahamiyati, inson huquqlariga ta'siri, yaxshi kelajak uchun barqaror yechim topish juda ahamiyatli ekanini ta'kidladi. Zero, qatariy ekspertning

Germaniyada "Modenschau — 2024" xalqaro modalar namoyishi bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan yosh o'zbek dizayneri Umida Rahimovaning "FAUUS" brendi ostidagi kolleksiyasi alohida e'tirof etildi.

Sog'inch



ABDULLAL QUTBIDDIN

DA'VAT

Ko'ngil obod o'lsa, unda xatar bo'lmas. Obod bo'lmoq inson uchun ulug'likdir. Agar unda chiroq yonsa, yorug'likdir, Yorug'likda tonglar axir urug'likdir. Shu tonglarni avlodlarga kim atadi? Bog'larimiz ko'ngil bilan kim butadi? — Qalbg'a qo'yib anglab oling davronimni.

Qancha qayroq qayradilar ko'z olayib, O't qo'yidilar ichi quruq xashaklarga, Kibrlarga, hasadlarga, shaq-shaqlarga, O, qanchalar yuragidan ketdi mayib, Haqiqatning olovidan zum bujmayib.

Tik turdi-ku Bahouddin Naqshbandiy, Sohobqiron, Bobur mirzo, Ulug'beklar, Keshiyalar shoshiylar, dilbandiyalar, Ahli Xoraz, ho'qandiyu samarqandiy, Ulug' yo'lga ot qo'yidilar o'zlug' beklar.

O'zligimiz sari ketdik, ko'krak kerib, Orzularu umidlarni bir-bir terib, Buyuk davlat quyoshiga ixlos berib, Bolamizga shijoatni meros berib, Ham o'rganib, ham o'rgatib ketmoqdamiz, Umr o'tar asta-asta o'tmoqdamiz. Ammo ko'ngil xotirjamdir, to'g'ri bo'ldi, Oydinlik ham bag'rimizga bag'ir bo'ldi.

Ming yil o'tar, o'zgaradi bu dunyolar, Balki namxush tortib qolar xush havolar, Balki to'fon ko'taradi sho'x sabolar, O'zgarimaydi to qiyomat ahdu paymon, O'zgarimaydi Yer yuzida O'zbekiston, Yashnayverar hurriyatdan taralgan nur. Rangi o'chmas, qoni ezgu bu ziyolar.

Mangulikdir chin mehnatlar va zahmatlar, Iqbolimiz uchun yongan bu hikmatlar, Ajdodlarning ruhi aytgan bu rahmatlar, Kelajakning uyi yanglig' bu maktablar, Bu ishonchlar, bu tuyg'ular hamda surur.

Adashmaylik, qayishmaylik, egilmaylik, Xiyonatu aldovlarga bukiilmaylik, Ag'yorlarning kimxobiga tikilmaylik, Ayrimaylik orzulardan va Vatandan.

Shukrona ayt, Abdullal iqbolingdan, Gul baxtingdan, buguningdan, zilolingdan. Biling axir O'zbekiston va shavkatni, Ona Vatan degan qutlug' tariqatni, Shu tariqat poydor bo'ldi, qullug' qilgil, Ozodligu obodlikni sen tug' qilgil.

Ildamlagin Istiqolning yo'llaridan, Bu yo'llarki, saodatga eltuvchidir, Hech tushirma bayrog'ingni qo'llaringdan, Adl turgan murosuliga yetuvchidir.

Da'vatim shu: Vatan — Alloh nazardandur, Yurtshaydolg'ij vojib Xo'ja Xizrdandur. Vatan axir iymon uchun bir sajdagoh, Kimki Vatan ichra bo'lsa o'shal ogoh.

Iymondandir xizmat qilmoq raiyatga, Butun xalqqa, aziz yurtga, haqiqatga, O'zbekiston degan buyuk muhabbatda, Yashab birga, Ketib birga, Tiriliganda —

O'zbekiston jonajonim — Vatan, desak, Parvardigor, o'zing uni asra, desak, Shu yurt uchun portlat, desak ko'zimizni, Tuprog'iga tuprog' qilgin o'zimizni. Onajonim, Jondan suyuq Vatan desak! Vatan desak, Vatan desak, Vatan desak!

HOVLI OLDIDAGI MAYDONCHA

Farg'onalik mashhur bokschi Bektemir Meliqo'ziyev o'zi tug'ilib o'sgan Furqat tumanining Shoyimbek qishlog'ida sport bilan shug'ullanish imkonini yo'qligi bois kamida yigirma chaqirim olisdagi Qo'qon shahrida joylashgan ixtisoslashtirilgan maktabda mahoratini oshirgan. Boks bo'yicha qit'a, jahon chempionatlari g'olibi bo'lgan quvalik Miraziz Mirzaxalilov, bolaligi Rishton tumanining Buloqbooshi mahallasida o'tgan Asadxo'ja Mo'ydinxo'jayev ham olis hududlarga qatnab, rosa qiynalishganini ko'p eslashadi.

Barkamol avlod orzusi

Sportdagi o'z yutuqlari bilan hurmat qozonayotgan Mohigul Hamdamova, Dilafro'z Ahmadxonova, Ziyoda Abdusattorova kabi farg'onalik chempion qizlar uchun ham bu holat begona emas. Ammo endi vaziyat o'zgardi, bugungi kunda nafaqat mashhur sportchilar istiqomat qiluvchi mahallalar, balki viloyatning eng olis va uzoq hududlarida ham bu borada qulay sharoitlar muhayyo etildi.

Hozirgi kunda viloyatda 3,3 mingga yaqin guruh (to'garak)lar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, 52 ta sport turi bilan shug'ullanayotgan qariyb 34 ming nafar yigit-qizga 1,5 ming murabbiy muntazam ravishda mashg'ulot olib bormoqda. Birgina 2023-yil davomida viloyat sportchilari 3 694 ta medalni qo'lga kiritdi. Uning aksariyati xalqaro musobaqalar, Osiyo va jahon chempionatlarida yutilgani e'tiborga loyiq. Munosib yutuqlari tufayli o'tgan yili 700 ga yaqin farg'onalik sportchilar o'z yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasiga qabul qilindi.

2023-yili Xanchjou (Xitoyda) bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida terma jamoa safida viloyatning 21 nafar sportchisi qatnashib 4 ta, Paraosiy o'yinlarida esa 11 sportchi 8 ta medalni qo'lga kiritdi.

O'tgan yil natijalari bo'yicha viloyat sport ta'lim muassasalari reyting ko'rsatkichlariga ko'ra mamlakatimizda to'rtinchi o'rinni egalladi, — deydi Farg'ona viloyati sport boshqarmasi boshlig'i Nodirbek Hakimov. — Yil mobaynida "Hokim va yoshlar" uchrashuvlari doirasida 54 nafar sportchi yutuqlari uchun munosib rag'batlantirildi. Jahon arenalarida mamlakatimizdovrug'ini doston qilgan uchun uch nafar sportchimizga yangi xonadonlar kalitlari tantanali ravishda topshirildi.

Mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan sport maskanlariga 3 184 ta tibbiyot va 4 437 ta sport jihozi, 4 129 juft sport kiyimi yetkazib berildi.

O'tgan yili viloyatning barcha shahar va tumanlarida tashkil etilgan ommaviy sport tadbirlariga 1 milliondan ziyod aholi qamrab olindi. "Besh tashabbus olimpiadasi" g'olibi bo'lgan mahallaning 28 nafar yosh vakili uchun 28 ta sport maydonchasi, sport infratuzilmasi bo'lmagan 13 ta MFYga yangi majmualar qurildi va ishga tushirildi.

Viloyatdagi 11 sport muassasasiga mahalliy budget mablag'lari hisobidan, shuningdek, 5 ta muassasaga Sport vazirligi tomonidan quyosh panellari hamda suv isitish moslamalari o'rnatildi. Hududlardagi 6 ta mahallada tadbirkorlar ko'magida zamonaviy sport maydonchalari qurib bitkazildi. 2022-2023-yillarda So'x, Dang'ara, O'zbekiston tumanlari va Qo'qon shahrida "Tashabbusi budget" g'olibi bo'lgan 4 ta sport maskaniga 2 mlrd. 697 mln. so'm investitsiya jalb etildi.

O'tgan yili "Besh tashabbus olimpiadasi"ning voleybol sport turidan



egalladi, — deydi Farg'ona viloyati sport boshqarmasi boshlig'i Nodirbek Hakimov. — Yil mobaynida "Hokim va yoshlar" uchrashuvlari doirasida 54 nafar sportchi yutuqlari uchun munosib rag'batlantirildi. Jahon arenalarida mamlakatimizdovrug'ini doston qilgan uchun uch nafar sportchimizga yangi xonadonlar kalitlari tantanali ravishda topshirildi.

Mahallalarda faoliyat ko'rsatayotgan sport maskanlariga 3 184 ta tibbiyot va 4 437 ta sport jihozi, 4 129 juft sport kiyimi yetkazib berildi.

O'tgan yili viloyatning barcha shahar va tumanlarida tashkil etilgan ommaviy sport tadbirlariga 1 milliondan ziyod aholi qamrab olindi. "Besh tashabbus olimpiadasi" g'olibi bo'lgan mahallaning 28 nafar yosh vakili uchun 28 ta sport maydonchasi, sport infratuzilmasi bo'lmagan 13 ta MFYga yangi majmualar qurildi va ishga tushirildi.

Viloyatdagi 11 sport muassasasiga mahalliy budget mablag'lari hisobidan, shuningdek, 5 ta muassasaga Sport vazirligi tomonidan quyosh panellari hamda suv isitish moslamalari o'rnatildi. Hududlardagi 6 ta mahallada tadbirkorlar ko'magida zamonaviy sport maydonchalari qurib bitkazildi. 2022-2023-yillarda So'x, Dang'ara, O'zbekiston tumanlari va Qo'qon shahrida "Tashabbusi budget" g'olibi bo'lgan 4 ta sport maskaniga 2 mlrd. 697 mln. so'm investitsiya jalb etildi.

O'tgan yili "Besh tashabbus olimpiadasi"ning voleybol sport turidan

22 — 26 yosh toifasida (ayollar) respublika final bosqichida birinchi o'rinda saozovor bo'ldik, — deydi jamoa a'zosi, Qo'shtepa tumanidagi "Do'stlik" MFYda yashovchi Havoxon Nurmatova. — Natijada mahallamiz yoshlari uchun universal sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirildi.

E'tiborlisi, viloyat hokimligi tashabbusi bilan keyingi yillarda barcha shahar va tumanlarda 63 ta sport klubi faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularga mahalladagi 1 541 nafar yosh jalb qilinishiga erishildi. Ayni paytda 81 nafar malakali murabbiy futbol, basketbol, voleybol va gandbolga ixtisoslashtirilgan ushbu

Klublarda yigit-qizlar bilan mashg'ulotlar olib bormoqda.

Erkinjon Homidov Farg'ona tumanidagi 1-sport maktabida futbol murabbiyi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Uning bolaligi tumanning olis, eksklav hududida joylashgan Shohimardon qishlog'ida o'tgan. Tuman markaziga Shohimardon dan ham uzoqroq hududda joylashgan yana bir eksklav hudud Yordon qishlog'i yoshlari sharoitidan kelib chiqib, asosan, yakkakurash sport turlari bilan shug'ullanadi.

— Yaqinda nodavlat notijorat tashkilotlari grant tanlovida "Yordon" MFYga sun'iy qoplamali futbol maydoni qurish uchun 200 million so'm yutib olindi, — deydi E. Homidov. — Ayni kunlarda ushbu mablag' evaziga Yordonda futbol stadioni qurish ishlari jadal davom etmoqda. Demak, yurtimizda hech bir mahalla, yoshlar davlatimiz g'amxo'rligidan chetda emas.

Bugun davlatimizning yuksak e'tibori va rag'batlari samarasi sifatida mahalla jismonan hamda ma'nadan yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda chin ma'noda ustoz, murabbiy vazifasini bajarmoqda. Buni Farg'ona viloyatining 1062 ta mahalla fuqarolar yig'ini misolida yaqqol ko'rish mumkin.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

REKLAMA

Diqqat, ijodiy tanlov!

O'zbekiston Badiiy akademiyasi Surxondaryo viloyatining Termiz tumanidagi "Yangi O'zbekiston" bog'i hududida barpo etiladigan Mustaqillik monumenti loyihasini yaratish bo'yicha rassom va haykaltaroshlar o'rtasida ijodiy tanlov e'lon qiladi.

Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy loyihalarda uch ming yillik o'zbek davlatchiligi taraqqiyotida alohida o'rinda ega bo'lgan Surxon vohasiga oid muhim tarixiy ma'lumotlar, ushbu hududga xos azaliy qadriyat va an'analar, mustaqillik yillarida erishilgan salmoqli yutuqlar hamda oddiy insonlarning ezgu orzu-umidlari haykaltaroshlik san'atining ilg'or an'analari va betakror badiiy-me'moriy yechimlar asosida yuqori badiiy saviyada aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Tanlovda mazkur yo'nalishlar bo'yicha taniqli haykaltaroshlar, monumental san'at sohasida va zamonaviy shaharsozlikda haykallarni o'rnatish borasida yetarli bilim va tajriba to'plagan mutaxassislar ishtirok etishi mumkin.

Loyiha eskizlarining tanlovga mo'ljallangan modeli nusxa ko'chirish va uzoq muddat saqlashga mo'ljallangan istalgan materialdan tayyorlanishi mumkin. Ijodiy loyihalar joriy yil 20-iyundan 20-iyul sanasiga qadar qabul qilinadi.

Tanlovga mo'ljallangan ijodiy loyihalarni O'zbekiston Badiiy akademiyasi Badiiy ko'rgazmalar direktoriyasining Markaziy ko'rgazmalar zaliga topshirish so'raladi.

Manzil: Toshkent shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 40-uy. Bog'lanish uchun telefon: 71-232-17-66.

Urrib turgan yurakda noyob jarrohlik amaliyoti o'tkazildi

V. Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda Guliston tibbiyot klasterining malakali mutaxassislari tomonidan Sirdaryoda ilk bor urib turgan yurakda aorta koronar shuntlash jarrohlik amaliyoti o'tkazildi.

Salomatlik

— Yurak sohasida muammosi bor 68 yoshli bemorda sun'iy qon aylantirishsiz, urib turgan yuragiga qovurg'alar aro bo'shliqdan 6 — 8 santimetr kesma orqali kirib, uchta yurak-qon tomirida aorta koronar shuntlash amaliyotini o'tkazdik, — deydi tibbiyot fanlari doktori Rustam Yorbekov. — Bu eng xavfsiz va samarali usul bo'lib, ko'krak qafasi hamda boshqa sohalarning yaxilligi saqlab qolinishiga, yurak reabilitatsiyasi vaqtining qisqarishiga, bemorning qisqa fursatda oyoqqa turib ketishiga yordam beradi. Eng muhimi, to'sh suyagining yaxilligi buzilmaydi, ko'krak qafasining anatomi — funksional tuzilishi o'zgarmaydi. Ayni vaqtda bemorning salomatligi yaxshi, shifokorlar nazoratida davo muolajasini olmoqda.



Ahmadali SHERNAZAROV ("Xalq so'zi").

Bozorning eng muhim sharti

G'uzorlik Eldor Bo'riyev bundan o'n yil avval, ya'ni 2014-yilda uyida kichik sex tashkil qilib, ikki turdagi pishiriqlar tayyorlab sotish bilan tadbirkorlik faoliyatini boshlagan edi.

Tadbirkorlik

U dastlab faoliyat yuritishda qiyinchiliklarga uchradi. Oila a'zolari bilan birgalikda kuniga atigi 5-6 kilogramm atrofida pishiriq tayyorlasa-da, lekin shunga ham xaridor topilmadi. U tushunib yetdiki, mahsulotning sifati, raqobatbardoshligi — bozorning muhim sharti. Shunday yo'l tutmasa, raqobatda yutuq qo'yishi tayin. Shu tariqa, u bor e'tiborini xaridor didiga mos mahsulot tayyorlashga qaratdi.

Ayni paytda tadbirkor o'z xonadonining bir qismini to'liq ishlab chiqarish hududiga aylantirib, u yerda sex faoliyati uchun barcha shart-sharoitni yaratgan.

— Qandolat mahsulotlarini tayyorlashda dastlab kichik pechlardan foydalangan bo'lsak, bir necha yil avval ularni zamonaviy hamda katta quvvatlisiga almashtirdik, — deydi Eldor Bo'riyev. — Natijada bugungi kunda oyiga o'rtacha 2,5 tonnaga



yaqin pishiriq tayyorlayapmiz. Agarda buyurtmalar ko'paysa, bemaol quvvatni ikki barobar oshirishga quribmiz yetadi. O'tgan yili qadoqlash uskunasi xarid qilgan edik. Hozirgi kunda tayyor mahsulotni qutilarga joylashtirgach, yangi xarid qilingan texnologiya yordamida qadoqlaymiz. Bu turli-tuman shirinliklarni xaridorlarga nafaqat chiroyli idishlarda taqdim etish, balki uning saqlash muddatini ham bir necha marotaba oshirish imkonini berayotir.

E'tiborlisi, korxonada ayni paytda hudduddagi 10 nafar xotin-qiz doimiy ish bilan band. Ular ishlab chiqarayotgan

mahsulotlar peshmash xaridorlarga yetkazib berilmoqda. Tadbirkor esa erishilgan natijalar bilan cheklanib qolmoqchi emas.

— Kelgusida korxonaga uchun alohida bino barpo etmoqchiman, — deydi u. — O'tgan yili aukcion orqali tuman markazidan ishlab chiqarish binosi qurish uchun yer maydoni olgan edim. Tez orada qurilish ishlari boshlanadi. Bu yerda faoliyatimiz uchun hamma shart-sharoit yaratiladi. Yana yangi texnologik uskunalar xarid qilib, mahsulot assortimentini va ishlab chiqarish quvvatini oshirish niyatidamiz. Korxonamiz yonida esa do'kon barpo etib, shu yerning o'zida savdo-sotiqni ham yo'lga qo'yamiz.

Albatta, bu sa'y-harakatlar korxonaga salohiyatini yanada oshirib, qo'shimcha o'nlab ish o'rinlari oshirishga imkoniyat yaratishi bilan ahmiyatlidir.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

Stokgolmda tashkil etilgan festivalda o'zbek paloviga "Eng yaxshi milliy taom" yo'nalishi bo'yicha birinchi o'rin berildi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR: Devonxonona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy. Navbatchi muharrir F. Bozorov. Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonaga manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 22.49 Topshirildi — 02.25 1 2 3 4 5 6